

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

6-2024

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

**Н.Н.Бобоҷонов, Г.Г.Козлова**

8 yoshdan 10 yoshgacha bo'lgan bolalarda qo'shma ta'sir qilish usuli yordamida harakatni muvofiqlashtirish ko'nikmalarini yaxshilash ..... 111

**D.T.Abduraimov**

Talabalar hayoti sifatini yaxshilashda atletik gimnastika vositalaridan foydalanishning samaradorligi..... 116

**F.M.Mamadova**

Bo'lajak jismoniy madaniyat o'qituvchilarining pedagogik madaniyati va kompetensiyasini rivojlantirish mexanizimi ..... 121

**M.M.Yuldashev**

Ayollar organizmini jismoniy mashqlarga reaksiya qilishida hududiy omillarning ahamiyati ..... 125

**N.J.Madaminova**

Maktabgacha ta'llimda ingliz tilini o'rganish uchun geymifikatsiya texnologiyalaridan foydalanish: samaradorlik va natijalar tahlili ..... 129

**S.M.Sidikov**

Maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarning jismoniy rivojlanishini nazorat qilish modernizatsiya..... 133

**S.B.Erkinova**

Oliy ta'llim muassasalarida tahsil olayotgan talabalarning kognitiv faoliyatini tuzilishi va turlari .... 139

---

**IQTISODIYOT****M.R.Dadashzade**

Administration of the production areas based on innovative technology..... 143

---

**FALSAFA****I.M.Arzimatova**

O'zbekistonda modernizatsiya jarayonlari va rahbar kadrlar faoliyati..... 148

**F.A.Yuldashev**

Axborotlashgan jamiyatda ehtiyoj va manfaat kategoriyasining namoyon bo'lishi (ijtimoiy-falsafiy tahlil)..... 153

**Sh.Ismatov**

Yangi O'zbekistonda ma'rifiy jamiyat barpo etishning nazariy asoslari ..... 158

**B.B.Asqarov**

Dizayn fikrplashda empatiya bosqichining pedagogikadagi roli ..... 161

**I.A.Asatulloev**

Alfred adlerning qalb konsepsiyasida inson barkamolligi omillari..... 164

**O.Ortiqov**

Mustaqillik davrida ijtimoiy-falsafiy tadqiqotlar tahlili (1990-1994 yillar)..... 172

**A.M.Nurmuxammadjonov**

Ijtimoiy rivojlanish jarayonida yoshlар musiqiy tafakkurini rivojlantirishning istiqboldagi vazifalari ..... 175

**A.A.Sayitxonov**

Ilmiy qadriyatlarning inson axloqiy va ma'naviy yuksalishiga ta'siri..... 188

---

**SIYOSAT****A.Leyla**

Xitoy Xalq Respublikasining Markaziy Osiyo mintaqasidagi geosiyosiy manfaatlari ..... 191

**S.N.Abdullayev**

Huquqiy ong masalasiga falsafiy yondashuvning o'ziga xos xususiyatlari ..... 196

---

**ТАРИХ****Sh.M.Abdusatorov**

Jizzax vohasi an'anaviy taomlarining gastroturizmni rivojlantirish bosqichidagi o'rni va ahamiyati (Forish tumani misolida)..... 199



УО'К: 378:372.136

**BO'LAJAK JISMONIY MADANIYAT O'QITUVCHILARINING  
PEDAGOGIK MADANIYATI VA KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZIMI**

**THE MECHANISM FOR DEVELOPING THE PEDAGOGICAL CULTURE AND  
COMPETENCE OF FUTURE PHYSICAL EDUCATION TEACHERS**

**МЕХАНИЗМ РАЗВИТИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ И КОМПЕТЕНТНОСТИ  
БУДУЩИХ ПРЕПОДАВАТЕЛЕЙ ФИЗИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ**

**Mamadova Feruzaxon Mirzaaxmad qizi**   
Farg'ona davlat universiteti Sport faoliyati turlari kafedrasи o'qituvchisi

**Annotatsiya**

*Maqolada bo'lajak jismoniy madaniyat o'qituvchilarining pedagogik madaniyati va kompetensiyasini rivojlanish mexanizimi haqida so'z yuritilgan. Shuningdek bo'lajak jismoniy madaniyat o'qituvchilarining pedagogik madaniyati va kompetensiyasini rivojlanish mazmunini ilmiy asosda o'rgatish, uning tashkiliy va texnologik asoslarini modernizatsiyalash haqida ham ma'lumotlar berilgan.*

**Abstract**

*The article discusses the mechanics of the development of pedagogical culture and competence of future teachers of Physical Culture. It is also reported about teaching the content of the development of pedagogical culture and competence of future teachers of Physical Culture on a scientific basis, modernizing its organizational and technological foundations.*

**Аннотация**

*В статье рассматривается механизм развития педагогической культуры и компетентности будущих учителей физической культуры. Также представлена информация о научном обосновании содержания развития педагогической культуры и компетентности будущих учителей физической культуры, модернизации ее организационно-технологических основ.*

**Kalit so'zlar:** pedagogik madaniyat, kompetensiya, jismoniy tarbiya, kuzatish, so'rov, savol-javob, suhbat, taqqoslash, jismoniy tayyorligi, individual-psixologik xususiyat, pedagogik jarayon.

**Ключевые слова:** педагогическая культура, компетентность, физическое воспитание, наблюдение, опрос, вопрос-ответ, беседа, сравнение, физическая подготовленность, индивидуально-психологическая характеристика, педагогический процесс.

**Key words:** pedagogical culture, competence, physical education, observation, inquiry, question and answer, conversation, comparison, physical readiness, individual-psychological feature, pedagogical process.

**KIRISH**

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan, Yangi O'zbekiston taraqqiyotining strategiyasi ishlab chiqildi. Unda, "Jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlanishirish aholi salomatligini taminlashda muhim omildir" deb baho berilgan. Shu bilan bir qatorda 2022-2026 yillarga mo'ljalangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining 67-maqсадада; "Jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanadigan fuqarolarining sonini oshirish" ko'rsatilib, jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanadigan aholi sonini 2026 – yilda 33 foizga chiqarish belgilangan. Ayniqsa, Prezident Shavkat Mirziyoyevning joriy yilning 1-apreldagi ommaviy sportni rivojlanishiga bag'ishlangan maxsus yig'ilishida, 7 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan yoshlarni ommaviy sport bilan shug'ullanuvchilar sonini 6 milionga yetkazish, 2022-yil 20-dekabrda O'zbekiston xalqiga, Oliy majlis deputatlariga, Senatorlarga murojatida: "Turli yoshdagи kishilar uchun jismoniy mashqlarni o'rgatish ishlari yo'q"ligi to'g'risida alohida ko'rsatmalar berilda. Mamlakatni 2023 yilgi taraqqiyot strategiyasi dasturida, jismoniy tarbiya va sportga nihoyatda keng o'rinn berildi.

Shunga ko'ra Prezidentimizning tashabbusi bilan millat salomatligi, uning sog'lom turmush tarzi, yoshlarning jismoniy madaniyati, sportiga oid qator davlat ahamiyatga molik tadbirlar, farmonlar, buyruqlar (3,4)ning tub ma'nosi jamiyatimiz a'zosining harakat faolligini oshirishni nazarda tutadi va ularning ijrosi – amalga oshirilishi davlat siyosati darajasigacha ko'tarilib bo'ldi.

Bo'lajak jismoniy madaniyat mutaxassislarining pedagogik madaniyati va kompetensiyasini rivojlantirish mazmunini ilmiy asosda o'rgatish, uning tashkiliy va texnologik asoslarini modernizatsiyalash, kelajakda rivojlanish tendensiyalarini ishlab chiqish "Jismoniy tarbiya va sport pedagogikasi" fani oldida turgan dolzarb masalalardan biridir. Bunda pedagogik faoliyatning maqsadi jamiyat tomonidan belgilanishi hamda uning natijasi jamiyat manfaatlari bilan bog'liqligi, yoshlarni ijtimoiy munosabatlar tomon yo'llashi, ijtimoiy tajriba orttirish uchun insondagi tabiiy imkoniyatlarni ro'yobga chiqarishga zamin yaratadi.

Bo'lajak jismoniy madaniyat mutaxassislari har tomonlama yetuk: chiniqqan, sof fikrli, mard, sabotli, qat'iyatli, kelajakda Vatanni himoya qila oladigan shaxslarni kamol toptirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Shu nuqtai nazardan, bo'lg'usi jismoniy tarbiya o'qituvchilarining faoliyatini innovatsion tashkil qilish, ta'limg'uzi tarbiya mazmunini yangilash va boyitish muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'limg'uzi tarbiya o'qituvchilarini nazariy va amaliy jihatdan innovatsion faoliyatga tayyorlash, yosh avlodni jismonan tarbiyalashda samaradorlikka erishishdir. Zero, faqat jismonan barkamol, sog'lom shaxsgina o'zining intellektual, ma'naviy imkoniyatlarini to'laqonli namoyon etish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu ma'noda mamlakatimizda jismoniy tarbiya tizimining tarixiy tajribalarini qiyosiy-tahhiliy o'rganish, amaliy tajribalarini tanqidiy mushohada qilish asosida umumlashtirish, jismoniy tarbiya o'qituvchilarining innovatsion faoliyatini to'g'ri tashkil qilish, uning istiqbolli strategiyasini aniqlash imkonini beradi. Buning uchun maqsadli pedagogik tadqiqotlarni amalga oshirish zarurati kelib chiqadi.

Zamonaviy o'qituvchidan nafaqat o'z sohasining chuqur mutaxassis, balki kognitiv, pedagogik va psixologik jihatdan barkamol, siyosiy va iqtisodiy bilimlar va innovatsion texnologiyalarni har tomonlama biladigan, yuksak madaniyatli, o'qituvchi unvoniga ega bo'lishi, o'qituvchilik darajasiga ega bo'lishi ham talab etiladi.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Bo'lajak jismoniy madaniyat mutaxassislarining pedagogik madaniyati va kasbiy pedagogik tayyorgarligini "Jismoniy tarbiya va sport pedagogikasi"ning qadriyatlari va salohiyati orqali har tomonlama takomillashtirishga qaratilgan V.V.Borisova, I.N.Resheten, M.V.Proxorova, A.A.Sidorovning ilmiy ishlaridan tashqari, bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchisining pedagogik kompetensiyasini shakllantirish yo'llari bugungi kungacha o'rganilmagan. Bizning nazarimizda, sport mutaxassislarining kasbiy faoliyati tizimidagi eng muhim tarkibiy qismlardan biri pedagogik komponent hisoblanadi. Masalan, qo'shimcha ta'limg'uzi sohasida (bolalar, o'smirlar va kattalar va boshqalar) turli toifalar bilan o'tkaziladigan sport mashg'ulotlarida pedagogik bilim va pedagogik mahorat kerak bo'lib, umumiyl jismoniy madaniyat muammolarini hal qilishda pedagogik usullardan foydalaniladi. Shu bilan birga, jismoniy tarbiya o'qituvchisi faoliyatining mazmuni va protsessual tarkibiy qismlari zamonaviy innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda tizimlashtirish yuqori samara beradi. Bularning barchasini hisobga olgan holda, bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining pedagogik kompetensiyasini shakllantirishni jismoniy tarbiya o'qituvchilarining nazariy va amaliy kasbiy tayyorgarligining eng muhim vazifasi sifatida belgilash mumkin.

Bo'lajak jismoniy madaniyat mutaxassislarining pedagogik madaniyati va kompetensiyasini rivojlantirish uchun "Jismoniy tarbiya fani o'qituvchisining kasbiy kompetensiyasini shakllantirish yo'llari" informatsion-metodik seminar materiallari, shuningdek, "Muvaffaqiyatli jismoniy tarbiya" va "Jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi portfeli" loyihasi sinovdan o'tkazildi. Bo'lajak jismoniy madaniyat mutaxassislariga "Jismoniy tarbiya o'qituvchisi portfeli" va "Savodli jismoniy tarbiya o'qituvchilar" loyihalari joriy etildi.

### NATIJALAR VA MUHOKAMA

Bo'lajak o'qituvchilarning jismoniy madaniyatini sport pedagogikasi vositasida rivojlantirish jarayoniga integrativ yondashuvni qo'llash va unda axborotlarni qayta ishslash texnologiyasidan foydalanan pedagogik soha bo'yicha o'ziga xos innovatsion yondashuv bo'lib, uning yordamida tadqiqot jarayonida ijobji sifat o'zgarishi va yuqori samaradorlikka erishiladi.

Bo'lajak o'qituvchilarning jismoniy madaniyatini sport pedagogikasi vositasida rivojlantirishdagagi fanlar bloklarining yo'naltirilgan maqsad-vazifalari bor va ularning muammo yechimini hal qilishga yetarligini aniqlab olishga to'g'ri keladi. O'rganilgan davlat hujjalari idagi imkoniyat va shart-sharoitlar bo'lajak o'qituvchilarini tarbiyalashni integrativ yondashuv negizida amalga oshirishga bo'lgan dastlabki imkoniyatlar bo'lib hisoblanadi. Shuning birga mazkur

## PEDAGOGIKA

yo'nalishdagi dastlabki izlanishlarimiz natijalari bo'lajak o'qituvchilarni intellektual faoliyatga tayyorlashni integrativ yondashuv negizida amalga oshirish mumkin ekanligini ko'rsatadi. Bu esa bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashni zamon talablarini e'tiborga olgan holda integrativ yondashuv asosida amalga oshirishning ahamiyatini yanada oshiradi hamda bunday muammolarning ijtimoiy ahamiyatini ham yanada yuksaltiradi. Va qayd etish mumkinki, tadqiq etilayotgan muammoning o'zi ham davlat ahamiyatiga ega bo'lgan ijtimoiy ahamiyat kasb etuvchi istiqbolli dolzarb muammo bo'la oladi.

Shu sababli, mazkur tadqiqot ishimizning dastlabki bosqichida bo'lajak o'qituvchilarni integrativ yondashuv negizida tayyorlashning pedagogik va psixologik shart-sharoitlari ilmiy-metodik jihatdan asoslanib olindi. Buning uchun bo'lajak o'qituvchilarni integrativ yondashuv negizida tayyorlashga oid ko'nikma va malakalarini shakkantirish jarayonini o'zaro bog'liq bo'lgan mantiqiy ketma-ketligini ilmiy-metodik jihatdan asoslab oldik. Ularni quyidagicha ifodalab oldik: talabalarda integratsiyalashga oid bilim, ko'nikma va malakalarini shakkantirish. Bu birinchi kurslar ta'lim tarbiyasi jarayonida amalga oshiriladi; talabalarda integrativ yo'nalishlarni tanlashga o'rgatish. Bu bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashdagi ikkinchi kurslar ta'lim-tarbiyasi jarayonida amalga oshiriladi; talabalarni integrativ funksiyalarni yaratish va ular maqsad-vazifalari hamda mazmun-moxiyatini anglab yetishga o'rgatish. Bu bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashdagi uchinchi kurslar talim tarbiyasi davomida amalga oshiriladi; talabalarni integrativ yondashuv qilishga tayyorlash. Bu talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashdagi to'rtinchi kurslar ta'lim-tarbiya jarayonida amalga oshiriladi. Yuqorida qayd etilgan maktab ta'limiga mos didaktik materiallar va spravochnik ma'lumotlar hamda muammoni yechishga kerak bo'ladijan kreativ axborotlar muhitlari tayyorlanib olindi. Tizimlashtirilgan ma'lumotlar negizida talabalarni integrativ yondashuv negizida kasbiy faoliyatga tayyorlashga oid ko'nikma va malakalarini shakkantirish muammosi yechimini hal qilishga ko'maklashuvchi ma'lumotlar bazasi tayyorlanadi. Bu bo'lajak kadrlarni tayyorlashdagi yangilangan (modernizatsiyalangan) ta'lim mazmunini shakkantirishning metodologik asoslarini tayyorlab olishga keng imkoniyatlar yaratdi. Bunday imkoniyatlar negizida hal etilgan bosqichlar bo'yicha tayyorlangan ma'lumotlarni an'anaviy ta'lim jarayoni mazmuniga integratsiya qilish masalasi yechimini qarab chiqish mumkin bo'ladi.

Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining "Jismoniy tarbiya va sport pedagogikasi" fanidan o'quv hujjatlari, jumladan, o'z ishlari, pedagogik amaliyat hujjatlari, stajyor kundaliklari va stajyorning shaxsiy hisobotlari; ushbu amaliyat davomida olib borilgan ilmiy tadqiqot materiallari bilan tanishdik va o'rgandik. Shuningdek, kuzatish, so'rov, savol-javob, suhbat, taqqoslash kabi tadqiqot usullaridan foydalandik.

Bo'lajak jismoniy madaniyat mutaxassislarning pedagogik madaniyati va kompetensiyasini rivojlantirish jarayonida kuzatish, so'rov, ekspert baholash usullari va boshqalardan foydalanganmiz. Shu bilan birga, taqqoslash va integratsiya, statistik tadqiqot usullari, xulosalash usullari qo'llanildi. Bo'lajak jismoniy tarbiya mutaxassislarning pedagogik malakasining boshlang'ich darajasini aniqlash maqsadida "Jismoniy tarbiya va sport" ixtisosligi bo'yicha yuqori kurs talabalari uchun so'rov nomda o'tkazdik.

"Kompetensiya, malaka" tushunchasini qanday tushunasiz? degan savolga, respondentlarning 57 foizi buni "ma'lumotli o'qituvchi", keyingi 13 foizi "yuksak bilimli o'qituvchi" deb tushunsa, qolgan 30 foizi esa bu tushunchani "o'z kasbini yaxshi tushunish" deyishadi.

Anketaning "Pedagogik kompetensiya" tushunchasini qanday tushunasiz? Hech bir ishtirokchi savolga to'g'ri javob bera olmadidi. Bu savollardan keyin "Jismoniy tarbiya o'qituvchisining pedagogik kompetensiysi bu..." degan savolga t o'g'ri javob yo'q. So'rovning navbatdagi savoliga "Malakali murabbiyining qobiliyatini belgilang", 54% olgan qibiliyat "tashkiliy", ikkinchi o'rinda "pedagogik" – 47%, ikkinchi o'rinda "texnik" – 42% va "amaliy". - 39%. Eng past ball to'plagan qobiliyat "konstruktiv" hisoblanadi.

Mazkur so'rov tahlili shuni ko'rsatadi, bo'lajak mutaxassislarni "kompetentlik", "malaka", "pedagogik kompetensiya" tushunchalarini farqlay olmadilar va to'g'ri va aniq javob bera olmadilar. Ushbu so'rovning xulosasi shuki, bo'lajak mutaxassislarning pedagogik malakasi yetarli emas va bu yo'nalishda qo'shimcha tadqiqotlarni talab qiladi. Shu boisdan ham "Jismoniy tarbiya va sport" mutaxassisligi bo'yicha majburiy ta'lim standartini tadqiqot vazifalari bilan bog'liq holda tahlil qildik. Me'yoriy hujjatlarni o'rganish jarayonida nazariy tahlil, sintez va taqqoslash usullarini qo'llash orqali ularning yo'nalishi va bo'lajak sport o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik kompetensiyasini

shakllantirish imkoniyatlari farqlandi. Xulosa: tadqiqotning tajriba-eksperimental davrida 2-4 kurs talabalari, sport murabbiylari va jismoniy tarbiya o'qituvchilarining pedagogik kompetensiya darajasini aniqlash va ushbu kasbiy muhim shaxsni shakllantirish yo'llari sifatida shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalardan foydalanish usuli sinovdan o'tkazildi. Shakllantiruvchi eksperiment jarayonida "Jismoniy tarbiya va sport pedagogikasi" fanidan darslar va kasbiy-pedagogik amaliyotda maxsus topshiriqlar davomida kompetensiyaga qaratilgan turli loyihalarni bajarish natijasida quyidagi eksperimental "mahsulotlar" ishga tushirildi: "Stajyor portfeli". ", olim portfeli", "Savodli jismoniy tarbiya" loyhasi va boshqalar. Formativ eksperiment davomida o'tkazilgan maxsus topshiriqlar o'lchovi sifatida nazariy model sinovdan o'tkazildi. Natijada eksperimental guruhlarda o'quvchilarning pedagogik malaka darajasi oshganligi isbotlandi.

### XULOSA

Bugungi kunda jismoniy tarbiya darsini yangicha metodika orqali tashkil qilish, dars mashg'ulotlarida o'quvchilarni jismoniy mashqlar bilan birga ruhiy tayyorgarlikka va ruhiy quvvatini to'g'ri yo'naltirish va taqsimlashga doir ruhiy-psixologik tarbiya metodikasiga ham urg'u berish zarurligi kelib chiqmoqda. Chunki bugungi kunda o'quvchilarning jismoniy tayyorgarligiga, salomatligiga va tana tuzilishiga e'tibor qaratilsa ularda kamolatning belgilarini va salomatlikni ko'rish mumkin.

Bo'lg'usi jismoniy tarbiya o'qituvchisini kasbiy pedagogik faoliyatga tayyorlashda pedagogik jamoaning o'rni katta ahamiyat kasb etadi. Ta'lim sifatini oshirish jamiyatning barcha jabhalarida hayotni yaxshilashga olib keladi. Yangilik kiritish ta'lim sifatini oshirishning samarali vositasi bo'lganligi uchun ham rivojlangan davlatlar ta'lim jarayoniga uzluksiz yangilik kiritishga harakat qiladilar.

Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining kelgusidagi kasbiy faoliyatida kuch, tezkorlik, chaqqonlik, chidamlilik, qayishqoqlik kabi jismoniy sifatlar muhim rol o'ynaydi. Bunda jismoniy sifatlar doimo birgalikda, o'zaro aloqada namoyon bo'ladi. Bu inson organizmining ichki butunligi, uning funksiyalarining o'zaro harakati bilan izohlanadi.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

- Борисова Н.В. Педагогические особенности создания и внедрения системы активных методов обучения в институте повышения квалификации: Автoref. дис. канд. пед.наук. М., 1987. - 23с.; Решетень Н.Н., Прохорова М.В., Фомин Ю.А. Деловые игры в подготовке специалистов по физической культуре и спорту: Методические разработки. М.: ГЦОЛИФК, 1983. - 37 с.; Прохорова Т.Н. Теория и практика формирования творческой личности учащегося в системе художественно-эстетического образования: диссертация ... доктора педагогических наук: 13.00.01. - Москва, 2003. - 301 с.; Сидоров А.А., Прохорова М.В., Синюхин Б.Д.
- Педагогика: Учебник для студентов, аспирантов, преподавателей и тренеров по дисциплине «Физическая культура». М.: Терра спорт, 2000. - 272 с.
- Мамадова, Ф. (2023). BO'LAJAK JISMONIY MADANIYAT MUTAXASSISLARINING PEDAGOGIK MADANIYATI VA KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOGIK MODELI. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 3(7), 266-272.
- Tursinovich, K. A., Mirzaakhmadovna, M. F., & Alijonovich, E. T. (2022). 'Topical issues of pre-university preparation of students in the field of physical culture and sports. *Texas Journal of Multidisciplinary Studies*, 7, 253-255.
- Qayumovna, R. M. (2021). Examining and monitoring of the impact of hypo dynamic factors on the state of physical fitness in students. *Journal of Pedagogical Inventions and Practices*, 3, 40-43.